


Xitoy Xalq Respublikasi Raisi «Oliy Darajali Do'stlik» ordeni bilan taqdirlandi



Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinga O'zbekiston Respublikasining oliy davlat mukofoti – «Oliy Darajali Do'stlik» ordenini tantanali ravishda topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu mukofotni topshirar ekan, Xitoy Raisi xalqlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik rishtalari va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari, ishonch va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga, iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga ulkan hissa qo'shganini qayd etdi.

Birgalikdagi sa'y-harakatlar va Xitoy yetakchisining alohida e'tibori tufayli mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar misli ko'rilmagan yuksak darajaga chiqqani, mukammal va jadal tus kasb etgani qayd etildi. Savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar hamkorlikka oid keng ko'lamlı dastur va loyihalar faol amalga oshirilayotgani ko'rsatib o'tildi.

Si Szinpinning O'zbekiston Respublikasining oliy mukofoti bilan taqdirlanishi unga xalqaro miqyosdagi davlat va siyosat arbobi sifatida chuqur hurmat-ehtirom ifodasidir.

Xitoy Raisi "Oliy Darajali Do'stlik" ordeniga sazovor bo'lgan birinchi xorijiy davlat rahbari bo'ldi.

Manba